

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA SENSOR ETALONLAR ORQALI GEOMETRIK FIGURALARNI O'RGATISH AHAMIYATI

Vaxabova Gulshan Vafoqul qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni buyumlarning shakli, katta-kichikligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to'g'ri idrok qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qachalik to'g'ri hal qilinsa bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va xatto ahloqiy tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi, ya'ni bola umuman samarali rivojlanib boradi. Masalan: bir yarim yashar bola ariqning kengligini chamalab ko'rib, uning ustidan xatlab o'ta oladimi? Ikki yoshli bola besh bo'lakdan iborat matryoshkani to'g'ri yig'a oladimi? Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shakli va barglariga qarab ikki xil bir-biridan farqlay oladimi, bu guruhlarning shakli va rangini chizayotgan qismida aks ettira oladimi, bularning hammasi ma'lum darajada bolaning idrok qilishning qanchalik rivojlanganiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, idrok qilish sezish natijasida aqliy harakatlar narsa va hodisalarning xususiyatlarini analiz hamda sintez qilish, umumlashtirish va abstraksiyalash protsessi yuzaga keladi bu esa bilish faoliyatining zarur sharti hisoblanadi. Sensor harakatlarning rivojlanishi darajasi bolaning qobiliyatları shakllanayotganida hamda muayan bilimlarini va ayrim amaliy ko'nikmalarini egallash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bolada shakl va bo'yoqlarni idrok qilish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, u tevarak atrofdagi narsalarning xossalarni har tomonlama ko'ra biladi va his qila oladi. Bu esa ularning tasvirlash, rasm chizish, loydan, qog'oz matodan qirqib har xil narsa yasash hamda qurish-yasash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Sensor jarayonlari ayniqsa, ilk bolalikda alohida ahamiyatga ega bo'ladi chunki voqealikdagi narsa va hodisalarning shakli, katta-kichikligi, rangi va boshqa xossalarni to'g'ri va aniq idrok qilish qobiliyati ayni shu ilk va maktabgacha tarbiya yoshi davrida tez rivojlanadi.

Bolalar bog'chasida sensor tarbiyaning shartlari va metodlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mazmunli faoliyati sensor tarbiyaning muhim shartlaridan biridir. Xuddi ana shu mazmunli natijali faliyat sharoitida bolalarning e'tiborini buyumlarning o'ziga xos xususiyatlariga jalb etish, ularga bu buyumlarni o'zlashtirishda yordam berish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu imkoniyat shu bilan izoxlanadiki, xuddi ana shunday faoliyatda bolalar uning natijasi sifatlarni, xususiyatlarni munosabatlarni ajratish ko'nikmasiga bog'liqligini va unga asoslanib



ish tutish kerakligini anglab yetishadi. Masalan, bola chizgan rasmning sifati buyum shaklini, qismlari munosabatini, rangini, kattakichikligini ajratish ko'nikmasiga bog'liq bo'ladi; agar bola piramida halqalari va matryoshka qismlarining kattakichikligini ajratib, uni hisobga olsa piramida yoki matryoshqani to'g'ri yig'ishi mumkin. Shu munosabat bilan sensor tarbiya - bolalar bog'chasida tarbiya va ta'lif dasturillning maxsus mustaqil bo'limi qilib ajratilmagan, balki tasviriy, musiqiy, o'yin, mexnat, nutq kabi faoliyat turlariga kiritilgan.



Sensor tarbiya ta'lif sharoitida ayniqsa muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Bola sensor tajribasini kattalarning muntazam rahbarligisiz o'z xolicha o'zlashtirar ekan, u uzoq vaqt davomida sinash va xatolar yo'lidan boradi; uning sensor tajribasi ongli tarzda hosil qilingan bo'lmaydi., u ob'ektlarni tahlil qilib idrok etish ko'nikmasini yetarli darajada ko'nikmasini egallamagan bo'ladi. Hatto katta yoshdagi bolalar, masalan, geometrik shakllarni, ularni nomlanishini bilmasliklari mumkin, ularning harakterli belgilari va farqlarini ko'ra olmaydilar, ularni real buyumlarda taniy olmaydilar; bolalar buyumlarning fizik xossalarni (silliqligi, tiniqligi, yumshoqligi, yaltiroqligi, tovushining o'ziga xosligini va boshqalarini) bilmasligi mumkin; maktabgacha yoshdagi bolalar buyumlarni tekshirish, ko'rsatilgan sifatlarni ajratish harakatlarini ham egallamagan bo'ladilar. Sensor rivojlanishi stixiyali kechgan bolalar yaltiroqlik, tiniqlik, silliqlik, qattiqlik, egiluvchanlik kabi sifatlarni 10 foiz xollarda (turli yosh guruhlarida) ajratishgan va nomlashgan, o'rgatilganda esa bu mazmunni 3-4 yoshli tarbiyalanuvchilar egallashi mumkin bo'ladi. Shunday qilib, sensor tarbiyaning muvaffaqiyati bolalarning mazmunli faoliyati va katta odamning o'rgatishi ta'siri ostida o'tishiga bog'liqdir. Sensor tarbiya jarayonida bir qancha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Sensor tarbiya mazmuni butun maktabgacha yoshdagi bolalik davomida bolalarda turli yosh davrlarida vujudga keladigan va rivojlanadigan faoliyat turlarini hisobga olib amalga oshiriladi. Sensor tajriba natijasida bola dunyonи hissiy bilish, ko'rgazmali obrazli

yoshdagi bolalar, masalan, geometrik shakllarni, ularni nomlanishini bilmasliklari mumkin, ularning harakterli belgilari va farqlarini ko'ra olmaydilar, ularni real buyumlarda taniy olmaydilar; bolalar buyumlarning fizik xossalarni (silliqligi, tiniqligi, yumshoqligi, yaltiroqligi, tovushining o'ziga xosligini va boshqalarini) bilmasligi mumkin; maktabgacha yoshdagi bolalar buyumlarni tekshirish, ko'rsatilgan sifatlarni ajratish harakatlarini ham egallamagan bo'ladilar. Sensor rivojlanishi stixiyali kechgan bolalar yaltiroqlik, tiniqlik, silliqlik, qattiqlik, egiluvchanlik kabi sifatlarni 10 foiz xollarda (turli yosh guruhlarida) ajratishgan va nomlashgan, o'rgatilganda esa bu mazmunni 3-4 yoshli tarbiyalanuvchilar egallashi mumkin bo'ladi. Shunday qilib, sensor tarbiyaning muvaffaqiyati bolalarning mazmunli faoliyati va katta odamning o'rgatishi ta'siri ostida o'tishiga bog'liqdir. Sensor tarbiya jarayonida bir qancha bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Sensor tarbiya mazmuni butun maktabgacha yoshdagi bolalik davomida bolalarda turli yosh davrlarida vujudga keladigan va rivojlanadigan faoliyat turlarini hisobga olib amalga oshiriladi. Sensor tajriba natijasida bola dunyonи hissiy bilish, ko'rgazmali obrazli





fikrlash usullarini egallaydi. Bolalarning barcha turdagи faoliyati yanada takomillashadi, bilish va amaliy faoliyatda nisbiy mustaqillik shakllanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. -T.: Ilm ziyo, 2006.
2. Бикбаева Н.У., Ибрагимова З.И., Косимова х.И. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда элементар математик тасаввурларни шакллантириш. - Т.: Уқдтувчи, 1995 й.
3. Jumayev M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi. - T., 2007.
4. Михайлова А., Носова Э. Д., Столляр А. А., Полякова М. Н., Вербенец А. М.Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста. - Издательство «Детство-пресс». Санкт-петербург, 2008.

